QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“ShO‘RTAN GAZ KIMYO MAJMUASI” MChJ

ShO‘RTAN NEFT VA GAZ QAZIB ChIQARISH BOSHQARMASI

“DEHQONOBOD KALIY ZAVODI” AJ

KIMYO MUHANDISLIGI VA BIOTEXNOLOGIYA KAFEDRASI

TASHKILIY QO‘MITA MANZILI:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 225-uy, QarDTU bosh bino 1-qavat 120-xona.

ALOQA UCHUN:

998916407245 Normamatov F.H.
998904272777 Jumayeva A.A.
998914562666 Tavashov Sh.X.
998906380355 Xamroyev E.O.

e-mail: t_shahzod@mail.ru

Telegram: @abdullox2666

Konferensiya materiallari offline shaklda o‘tkazilishini hisobga olib, qabul qilingan maqola va tezislar uchun tashkiliy badal mablag‘ini to‘lash talab etilmaydi.

“Kimyo muhandisligi va biotexnologıya sohasidagı innovatsion rivojlantirıshning istiqbollari va muammolari” mavzusidagi respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman

AXBOROT XATI

Kimyo muhandisligi va biotexnologiya sohasi rivojlantirishning dolzarb masalalarini, ilmiy faoliyatda erishilgan salmoqli natijalarni muhokama etish va targ‘ib qilish maqsadida 2026-yilning **23-24-oktabr** kunlari **Qarshi davlat texnika universitetida** “**Kimyo muhandisligi va biotexnologıya sohasidagi innovatsıon rivojlantirishning istiqbollari va muammolari**” mavzusidagi Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman **offline** shaklda o‘tkaziladi.

Anjumanda yosh olimlar, iqtidorli talabalar, magistrantlar, doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar, professor-o‘qituvchilar va barcha tadqiqotchilar o‘zlarining ilmiy tadqiqot natijalari bilan ishtirok etishlari mumkin.

Ilmiy-amaliy anjumanda quyidagi masalalar muhokama qilish nazarda tutilgan:

1- sho‘ba. Noorganik va silikat materiallar ishlab chiqarishning dolzarb masalalari.

2- sho‘ba. Organik moddalar va yuqori molekulali birikmalar ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalar.

3- sho‘ba. Kimyoviy texnologiya jarayon va apparatlari xavfsizligi, zamonaviy katalizator va adsorbentlar texnologiyalarining istiqbollari.

4- sho‘ba. Biotexnologiyaning rivojlanish istiqbollari va innovatsion texnologiyalar.

- Maqola va tezis materiallari o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi;
- Yuborilgan maqola, tezislar tahrir hay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi va tahrirdan o‘tmagan, talablar bo‘yicha yuborilgan maqolalar nashr etilmaydi;
- Maqola va tezisdagi ma’lumotlar, dalillar va statistik ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’uldirlar.
- Maqola va tezisda albatta jadval (chizma yoki rasm) lar manbalari aniq ko‘rsatilishi, qisqartma so‘zlarga izoh berilishi lozim.

Taqdim etiladigan maqola va tezislarga qo‘yiladigan talablar:

- Maqola va tezislar yo‘nalishiga oid dolzarb mavzularda, ilmiy va tugallangan fikrlarga asoslangan, taklif va tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;
- Maqola va tezis matni Word matn muharririda, Times New Roman shrifti, 12 o‘lchamida, 1,5 intervalda bo‘lishi va 5 bet hajmdan oshmasligi lozim;
- Maqola va tezisning sarlavha qismining birinchi qatorida maqolaning nomi, ikkinchi qatorda muallifning ismi, familiyasi va otasining ismi, uchinchi qatorida muallifning ish joyi va elektron pochtasi ko‘rsatiladi.
- Maqola va tezislar 2026-yilning **15-oktabr** sanasiga qadar elektron shaklda yuborilishi mumkin:

Namuna

MAQOLA NOMI

Sho‘ba raqami:

Ergashev Toshmat Haydaraliyevich
Qarshi davlat texnika universiteti o‘qituvchisi
tel:+998(91)2345678, hakim_77@mail.ru

Maqola matni.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati